

UDC (UO‘K, УДК): 82-8

## ALISHER NAVOIY IJODIDA TARIXIY SHAXS OBRAZINING BADIY XUSUSIYATLARI<sup>20</sup>

*Pardayeva Iroda Mamayunusovna*

Filologiya fanlari bo‘yicha

falsafa doktori, dotsent,

Samarqand davlat chet tillari instituti,

Samarqand, O‘zbekiston

E-mail: [pardayevairoda74@mail.com](mailto:pardayevairoda74@mail.com)

Orcid ID: 0000-0003-0229-1748

### ANNOTATSIYA

Tarixiy shaxs obrazining badiiy talqini adabiyotshunoslikda doimiy dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu masala, avvalo, tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqat o‘rtasidagi nisbatni tushunish va tarixiy shaxsning badiiy obrazga aylanish jarayonini anglash zarurati bilan bog‘liqdir. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatining ijtimoiy-siyosiy konteksti uning tarixiy shaxslarga bo‘lgan munosabatini belgilagan. Shoir tarixni o‘rganishga, tarixiy shaxslar hayotidan saboq chiqarishga da‘vat etadi. Ayniqsa, “Xamsa” dostonlarida tarixiy shaxslar obrazlari orqali ma‘naviy tarbiya, axloqiy yetuklik va insoniylik g‘oyalari badiiy talqin topgan. Xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar shunchaki tarixiy shaxs emas, balki ilm-fan homiysi, adolatparvar hukmdor va komil inson sifatida ifodalanadi. Navoiy ushbu obraz orqali o‘z davrining ideal hukmdori timsolini yaratishga intiladi. Maqolada Alisher Navoiy dostonlarida tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi; ularda ifodalangan adolat, donishmandlik, axloqiy poklik, ijtimoiy mas‘uliyat kabi g‘oyalar badiiy-falsafiy yondashuv asosida ochib beriladi. Tarixiy obrazlarning ramziy, didaktik va ijtimoiy-ma‘naviy yuklamalari aniqlanadi hamda dostonlarning voqeaviy va kompozitsion tuzilmasidagi o‘rni yoritiladi.

### KALIT SO‘ZLAR

Tarixiy shaxs, badiiy talqin, Alisher Navoiy, temuriylar davri, tarixiy voqelik, adolat konsepsiyasi, badiiy-falsafiy timsol, axloqiy yetuklik, donishmandlik, ma‘naviy kamolot, ruhiy barkamollik.

**Received:** June 25, 2025

**Accepted:** July 19, 2025

**Available online:** September 3, 2025

<sup>20</sup>**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Pardayeva I. Alisher Navoiy ijodida tarixiy shaxs obrazining badiiy xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 286-300.

**ARTISTIC FEATURES OF THE IMAGE OF A HISTORICAL FIGURE IN THE WORK OF ALISHER NAVOI.***Pardayeva Iroda Mamayunusovna*Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philological SciencesSamarkand State Institute of Foreign Languages  
Samarkand, UzbekistanE-mail: [pardayevairoda74@mail.com](mailto:pardayevairoda74@mail.com)

Orcid ID: 0000-0003-0229-1748

---

**ABSTRACT**

The artistic interpretation of historical figures remains one of the most pressing topics in literary studies. This issue is closely linked to the need to comprehend the balance between historical and artistic truth, as well as to understand the transformation of real individuals into literary characters. The socio-political context of Alisher Navoi's life significantly shaped his attitude toward historical figures. Navoi encouraged the study of history and the derivation of moral lessons from the lives of historical personalities. In particular, in his *Khamsa*, the poet employs the images of historical figures to express ideas of moral education, ethical purity, and humanism. For example, in *Saddi Iskandariy*, Iskandar is portrayed not merely as Alexander the Great, but as a patron of science, a just ruler, and a perfect human being. Through this image, Navoi constructs the figure of an ideal sovereign of his time. This article analyzes the artistic representation of historical figures in Alisher Navoi's epics, revealing how concepts such as justice, wisdom, moral integrity, and social responsibility are artistically embodied. The symbolic, didactic, and socio-political dimensions of historical images are also examined, as well as their place within the narrative and compositional structure of the epics.

---

**KEY WORDS**

Historical figure, artistic interpretation, Alisher Navoi, Timurid era, historical reality, concept of justice, philosophical-literary symbol, moral maturity, wisdom, spiritual perfection, ethical refinement.

## ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

*Пардаева Ирода Мамаюновна*

доцент, доктор философии  
по филологическим наукам (PhD),  
Самаркандский государственный  
институт иностранных языков,  
г. Самарканд, Узбекистан

E-mail: [pardayevairoda74@mail.com](mailto:pardayevairoda74@mail.com)

Orcid ID: 0000-0003-0229-1748

---

### АННОТАЦИЯ

Художественная интерпретация образов исторических личностей остаётся одной из актуальных тем литературоведческих исследований. Эта проблема, в первую очередь, обусловлена необходимостью осмысления соотношения исторической и художественной правды, а также процесса трансформации реальных личностей в художественные образы. Социально-политический контекст жизни и творчества Алишера Навои определил его отношение историческим фигурам. Поэт призывал к изучению истории и извлечению нравственных уроков из жизни выдающихся деятелей прошлого. Особенно ярко это проявляется в собрании поэм «Хамса», где через образы исторических героев раскрываются идеи духовного воспитания, нравственной чистоты и гуманизма. В поэме «Стена Искандера» Искандер представлен не только как полководец Александр Македонский, но и как покровитель науки, справедливый правитель и совершенный человек. Через этот образ Навои формирует облик идеального правителя своего времени. В статье рассматривается художественная интерпретация образов исторических личностей в поэмах Навои, анализируется воплощение в них таких понятий, как справедливость, мудрость, нравственная чистота, социальная ответственность, выявляются символические, дидактические и социокультурные аспекты исторических образов, а также их роль в сюжетной и композиционной структуре поэм.

---

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Историческая личность, художественная интерпретация, Алишер Навои, эпоха Тимуридов, историческая реальность, концепция справедливости, художественно-философский образ, нравственная зрелость, мудрость, духовное совершенство, этический идеал.

## KIRISH

Tarixiy shaxsning badiiy talqini deganda, muallif tomonidan tarixiy shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va estetik jihatdan qayta talqin qilinishi, badiiy obrazga aylantirilishi tushuniladi. Bu talqin tarixiy shaxs haqidagi mavjud faktlarga asoslanishi mumkin, ammo u badiiy niyat, g'oya va muallif ideallarini ham o'zida mujassam etadi.

Iskandar obrazida Navoiy temuriylar davridagi ma'rifatparvarlik, adolat va ijtimoiy barqarorlik kabi siyosiy-axloqiy g'oyalarni ifoda etadi. U shohlikni nafaqat kuch, balki hikmat, ilmu donish, iymon bilan uyg'un bo'lgan me'yor sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv o'zining falsafiy ildizlariga ega bo'lib, Sharq tasavvufiy va hikmatli adabiy an'alaridan oziqlanadi.

Faridun, Jamshid va Nushiravon obrazlari esa adolat va siyosiy kamolot mezonlari sifatida namoyon bo'ladi. Faridun – zolimlikka qarshi kurashgan, xalqni ozodlikka olib chiqqan shoh; Jamshid – ilm-fan, hunar va madaniyat asoschilaridan biri sifatida; Nushiravon esa donishmandlik va adolatning timsoli sifatida tasvirlanadi. Ushbu obrazlar orqali Navoiy har bir tarixiy shaxsning muayyan ijtimoiy-ma'naviy funksiyasini ajratib ko'rsatadi. Bu talqin, shubhasiz, Navoiy ijodida badiiy obraz va tarixiy voqelik o'rtasida g'oyaviy aloqadorlik mavjudligini ko'rsatadi.

Zahhok kabi salbiy shoh obrazlari esa zulm, jaholat va nafs domiga tushgan inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu obrazlar orqali Navoiy nafaqat ijobiy namunalarni, balki ogohlantiruvchi, tanqidiy xarakterdagi tarixiy-badiiy timsollarni ham yaratgan. Shuningdek, u o'quvchini tarixiy xotira orqali axloqiy tanlovga undaydi.

## ASOSIY QISM

Akademik V.A. Kuxarenkoning ta'kidlashicha, *“Tarixiy shaxs badiiy asarda paydo bo'lganida, u nafaqat o'z davrining vakili, balki muallif dunyoqarashi, idealining aksidir”* (Кухаренко В.А., 1981,56). Bu fikr tarixiy obrazlar badiiy

asarlarda faqat tarixiy faktlarga asoslanmasdan, balki adibning maqsadlari, ijtimoiy-axloqiy g'oyalari bilan uyg'un holda yaratilishini anglatadi.

Professor B.X. Karimov esa o'zining *“Badiiy asarda tarixiy shaxs obrazining shakllanishi”* nomli tadqiqotida shunday deydi: *“Tarixiy shaxs badiiy asarda aks etar ekan, u tarixiy faktlar bilan emas, balki badiiy haqiqat mezonlari asosida talqin qilinadi”* (Karimov B.X., 2007, 34). Bu nuqtayi nazar adabiy asardagi tarixiy obrazni faqat tarixiylik mezonlarigina emas, balki badiiylik tamoyillari asosida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Bu haqda adabiyotshunos A. Qayumov shunday deydi: *“Navoiy uchun tarixiy shaxs — bu tarixiy voqelik emas, balki ma'naviy qadriyatlarining ifodachisi, axloqiy namunadir. Uning obrazlari orqali muallif zamonasi uchun ibratli ideal yaratadi.”* (Qayumov A., 1979, 74)

Taniqli adabiyotshunos N. Karimov bu haqda shunday fikr bildiradi: *“Navoiy tarixiy shaxslarni har doim badiiy maqsadlar nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Ular adib uchun voqelikni aks ettirish emas, balki g'oyaviy-estetik mezonlar asosida timsollashtirish vositasidir.”* (Karimov H., 2004, 112)

## MUHOKAMA

Alisher Navoiy ijodida tarixiy shaxs va uning badiiy talqini masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. U tarixiy shaxslarni faqatgina tarixiy voqealarning ishtirokchisi sifatida emas, balki ularning badiiy siymolari, axloqiy-ma'naviy timsollari orqali o'zining estetik, didaktik va falsafiy qarashlarini ham ifodalaydi.

Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, Navoiy tarixiy shaxs obrazlarini yaratishda ikki asosiy tamoyilga amal qiladi:

1. G'oyaviy-falsafiy yondashuv – tarixiy shaxs obrazini ma'naviy qadriyatlar ifodachisi sifatida ko'rsatish;
2. Estetik idealizatsiya – shaxs obrazini axloqiy va badiiy nuqtayi nazardan mukammal timsolga aylantirish.

Alisher Navoiy tarixiy shaxslar obrazini tarixiy haqiqat bilan chegaralab qo'ymaydi, balki ularni o'zining g'oyaviy-estetik qarashlari asosida badiiy-falsafiy

timsollarga aylantiradi. Bu esa uning adabiyotga nafaqat go‘zallik, balki ma’rifat va axloq vositasi sifatida qarashini yaqqol tasdiqlaydi.

Iskandar, Doro, Xusrav, Shoh Navfal kabi shaxslar Alisher Navoiy uchun oddiy tarixiy personajlar emas, balki axloqiy ideallarni aks ettiruvchi timsollardir. Uning dostonlarida tarixiy obrazlar faqat syujet vositasi emas, balki badiiy g‘oya va estetik tamoyillarning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Alisher Navoiyning dostonchilik faoliyati tarixiy obrazlar orqali yangi badiiy va g‘oyaviy shakllar yaratishga qaratilgan ijodiy harakat bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy shaxslar vositasida u badiiy olamni haqiqat bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchida chin insoniy qadriyatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Masalan, Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni orqali Iskandar timsolida nafaqat tarixiy shaxsni, balki komil inson, adolatli hukmdor g‘oyasini ilgari suradi.

Adabiyotshunos M. Juraev fikricha, *“Navoiy uchun tarixiy shaxslar hayotidagi voqealar emas, balki ularning timsoli orqali beriladigan axloqiy-ijtimoiy g‘oya muhimroq”* (Juraev M., 1999, 41).

Alisher Navoiy tarixiy shaxslarni dostonlarida oddiy syujet elementi sifatida emas, balki butun asarning g‘oyaviy-falsafiy mazmunini ochib beruvchi markaziy timsollar sifatida tasvirlaydi. U tarixiy obrazlar orqali insoniy fazilatlar, ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy tanlov va taqdir to‘qnashuvlarini yoritishga uringan. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida tarixiy shaxs Xusrav Parvez faqat sevgi voqeasining ishtirokchisi emas, balki shohlik, adolat, or-nomus, va fidoyilik timsolidir. U orqali Navoiy hokimiyatning insoniylik bilan uyg‘unlashuviga e’tibor qaratadi. Bu esa o‘quvchini nafaqat estetik zavq bilan, balki axloqiy masalalar ustida mushohada yuritishga da’vat etadi.

Shoir “Farhod va Shirin” dostoni orqali Sharq adabiyotining afsonaviy sevgi eposi namunalaridan birini yaratadi. Undagi Farhod obrazini faqatgina syujetning yurituvchisi sifatida emas, balki badiiy-falsafiy timsol, axloqiy-ruhiy yetuk inson sifatida talqin etish mumkin.

Mazkur doston Navoiy ijodida tarixiylikdan ko‘ra timsollilik, sodiqlik va fidoyilik g‘oyalari, ruhiy kamolot va ma’naviy yetuklik masalalarini ilgari suradi.

Akademik A.Qayumov bu obraz haqida quyidagicha izoh beradi: *“Farhod — bu Navoiy uchun shunchaki afsonaviy qahramon emas, balki ma’naviy barkamol inson timsoli, sadoqat va muhabbatning eng oliy cho‘qqisidir”* (Qayumov A., 1983,112)

Farhod haqidagi rivoyatlar asosan og‘zaki adabiyot, xalq dostonchiligi hamda forsoj adabiyoti orqali shakllangan. U tarixiy shaxs emas, balki xalq xayoli mahsuli, sevgisi yo‘lida jon fido qiluvchi ideallashtirilgan yigit sifatida tasvirlanadi. Navoiy esa bu obrazni o‘zining ijtimoiy-ma’naviy g‘oyalari bilan boyitadi. Navoiyshunos olim S. G‘aniyev fikricha: *“Farhod obrazining asosiy vazifasi tarixiylik emas, balki komil inson timsoli orqali sevgi, fidoiylilik, axloqiy yetuklik, nafs ustidan g‘alaba kabi g‘oyalarni badiiy ifodalashdir”* (G‘aniyev S., 1991,138).

Farhod obrazi tasavvufiy-estetik tafakkur doirasida ham talqin qilinadi. U haqiqiy sevgi yo‘lida o‘zini fido qilgan qahramon sifatida muhabbatda fano (yo‘q bo‘lish) g‘oyasini ifodalaydi. Bu esa uni sof zohiriy emas, balki botiniy ramzga aylantiradi.

Tasavvufchi mutafakkirlar nazarida, muhabbat – bu nafsni yengish, ruhiy komillikka erishish vositasidir. Farhod esa aynan mana shu yo‘lni bosib o‘tadi. U mehnat qiladi, jabr chekadi, o‘z sevgisidan voz kechadi, ammo poklanadi.

Bu haqda E. Rustamov yozadi: *“Farhod obrazi orqali Navoiy tasavvufdagi muhabbatni ilohiylashtiradi. Bu sevgi Shirin timsolida emas, balki Farhodning o‘zida mujassam. Chunki u sevgi yo‘lida o‘zini yo‘q qiladi”* (Rustamov E., 2005,165)

Farhod — mehnatkash, o‘z sevgisi uchun tog‘larni teshib yo‘l ochishga tayyor, sobitqadam va halol inson. U real tarixiy sarkarda yoki shoh emas, lekin ma’naviy yuksaklik jihatidan ko‘plab tarixiy shaxslardan ustundir. Bu jihat, ya’ni tarixiy emas, timsollik ustuvorligi Navoiyning poetik-estetik qarashlariga to‘la mos keladi.

Professor A. Hayitmetov shunday deydi: *“Farhod — xalq qalbidan chiqqan ideal qahramon. Navoiy uni ruhiy poklik, mehnatsevarlik, muhabbatda sadoqat timsoli sifatida ideallashtirib beradi. Bu obraz orqali tarixiy emas, axloqiy haqiqat yoritiladi”* (Hayitmetov A. 1974, 89)

Demak, “Farhod va Shirin” dostoni qahramoni Farhod — bu tarixiy emas, balki g‘oyaviy, afsonaviy, ma’naviy yetuk insonning badiiy timsolidir. Alisher Navoiy uni xalq rivoyatlaridan olgan holda tasavvufiy va axloqiy-falsafiy g‘oyalar bilan boyitadi. Uning sadoqati, fidoyiligi, pokligi orqali adib komil inson idealini yaratadi. Bu yondashuv Navoiy poetikasining asosiy jihatlaridan biri — tarixiy emas, axloqiy haqiqatni ifodalash prinsipiga asoslanadi.

Akademik Qori Niyoziy Alisher Navoiyning tarixiy obrazlarga bo‘lgan munosabatini baholarkan, adib ularni an’anaviy tarixiylik chegarasidan chiqarib, badiiy-falsafiy va axloqiy timsollarga aylantirganini e’tirof etadi: *“Navoiy tarixiy obrazlarni tarixiylik chegarasidan chiqarib, ularni badiiy-falsafiy timsolga aylantirgan. Bu timsollar orqali u ma’naviy va axloqiy barkamollikka da’vat etadi”* (Qori Niyoziy.,1960, 43)

Bu fikrga ko‘ra, Alisher Navoiy tarixiy shaxslar – Iskandar, Doro, Nushiravon, Faridun, Jamshid kabi hukmdorlar obrazini tarixiy faktlar asosida emas, balki ularning ma’naviy, axloqiy va siyosiy-ijtimoiy timsol sifatidagi g‘oyaviy qiymati nuqtayi nazaridan qayta yaratardi.

“Layli va Majnun” dostonida Arabbek kabi qahramonlar orqali ham tarixiy-madaniy kontekstda boshqaruv, urf-odat va shaxsiy fidoiylik masalalari ko‘tariladi. Garchi asar markazida romantik sevgi tursa-da, ammo Laylining otasi kabi qahramonlar shaxsiy irodani ijtimoiy bosim bilan qarama-qarshilikda ifodalaydi. *“Shuningdek, “Layli va Majnun” dostonida Shoh Navfal obrazining kiritilishi ham tarixiy va badiiy kontekstda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoh Navfal Majnunga yordam qo‘lini cho‘zgan jasur sarkarda sifatida namoyon bo‘ladi. Bu obraz orqali Navoiy insoniy birdamlik, rahm-shafqat va ijtimoiy yondashuvni targ‘ib qiladi. Shoh Navfal hayoti tarixiy manbalarda qanchalik aniq bo‘lmasin, Navoiy unga badiiy shakl berib, uni ma’naviy ramzga aylantiradi. Navoiy uchun tarixiylik bu faqatgina sanalar yoki voqealarning jamlanmasi emas, balki inson ma’naviyatining tarixiy tajribalar orqali shakllanishidir. Shu bois u tarixiy shaxslar obrazlarini yaratishda tarixiy manbalarga suyanish bilan birga, o‘zining badiiy tafakkurini ham kuchli qo‘llaydi. U tarixiy haqiqatni poetik haqiqat bilan uyg‘unlashtirib, ularni badiiy-*

*falsafiy qatlamda qayta ishlab, yangi mazmun bilan boyitadi. Bu uslub orqali tarixiy shaxslar obrazlari nafaqat voqeabop, balki chuqur simvolik ahamiyatga ega bo'ladi"* (Muhammadiyev B. 2010, 220)

Navoiyning "Hayrat ul-abror" masnaviy dostonida esa tarixiy adolat timsoli sifatida Nushiravon adli tilga olinadi. U haqida muallif shunday deydi:

*"Ki Nushiravon ko'rdi adl ila davlat,*

*O'ldi zamona ichra u bir saltanat."* (Alisher Navoiy., 1983,124)

Navoiy bu misrada adolatli hukmdorning davlatchilikdagi o'rni va tarixiy barqarorlikning muhim omili sifatida ko'rsatadi. Bu timsollar orqali Navoiy o'z davr hukmdorlari, xususan Sulton Husayn Boyqaro uchun ibratli ideal qiyofalar yaratganini ko'rish mumkin.

"Sab'ai sayyor" dostonidagi Bahrom Go'r obrazida ham shohning nafsoniy hirs bilan donishmandlik orasidagi ichki kurashi ochib beriladi. Navoiy bu orqali saltanat va shahvoniylik orasidagi muvozanat muammosini ko'taradi. Bahromning yetti gumbazdagi sarguzashtlari esa axloqiy saboqlar bilan boyitilgan.

Alisher Navoiy tarixiy shaxslarni faqat tarixiy ma'lumot sifatida emas, balki ularni axloqiy, siyosiy va falsafiy g'oyalarni yetkazish uchun yuksak badiiy timsollar darajasiga ko'targan. Bu esa uning asarlarini o'quvchi ongida faqat estetik emas, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkur uyg'otuvchi manbaga aylantiradi.

*"Tarixiy shaxslar obrazlarining dostonchilik an'anasidagi o'rni haqida so'z yuritilganda, Navoiyning dostonlarida bu obrazlar qanday funksional rol o'ynagani haqida to'xtalish lozim. Birinchidan, ular voqealar rivojiga turtki beruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, bu obrazlar orqali asarning g'oyaviy asoslari axloq, adolat, fidoyilik, muhabbat kabi tushunchalar ochib beriladi. Uchinchidan, tarixiy obrazlar yordamida o'quvchiga tarixiy ong va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi singdiriladi. To'rtinchidan, Navoiy tarixiy obrazlarni zamonaviy voqealar bilan qiyoslab, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy holatini hamda ma'naviy inqirozlarini badiiy ifoda etgan"* (Berdiyev H.,1972,234).

Shu jihatdan, Navoiy ijodi tarix va adabiyotning qovushgan cho'qqisidir. U o'z dostonlarida tarixiy shaxslar orqali Sharqning boy tarixiy tajribasini, insoniy

qadriyatlar va ruhiy iztiroblarni teran tahlil etadi. Masalan, Farhod tarixiy emas, afsonaviy obraz bo'lsa-da, uning harakati, sevgisi, sadoqati va halokati orqali Navoiy mehnat, sabr-toqat va fidoyilikni ulug'laydi. Bu yerda tarixiylikdan ko'ra, timsoliylik ustun bo'lsa-da, Farhod obrazi orqali insoniyat tarixidagi abadiy fazilatlar ulug'lanadi.

Xuddi shunday, "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar Zulqarnayn obrazida ham faqat fotih emas, balki donishmand, adolatparvar va ilm ahlini qadrllovchi hukmdor timsoli beriladi. Navoiyning ta'kidlashicha:

*"Gar xalqni adl ila ko'rguzmasang,  
Zolimsan, zolimni to'rguzmasang."* (Alisher Navoiy., 1991, 75)

Bu misralar orqali Iskandarning adolat va boshqaruvda halollik tamoyiliga sodiqligi ilgari suriladi.

"Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazida ideal hukmdor timsoli orqali tarixiylik va badiiylik sintez qilinsa, uning tarixiy asari bo'lmish "Majolis un-nafois"da bevosita Amir Temur siymosi maqtovga sazovor etiladi. U Temurni adolatli va hikmatli siyosatchi sifatida ta'riflab, unga sharqona "siyosatnomalar" an'anasi doirasida yondashadi.

*"Amir Temur — millat suyanchi, davlatda adlga asos qo'yg'uvchi sultondir."*  
(Alisher Navoiy., 1991, 38)

Nushiravon — qadimiy Eronda adolat timsoli bo'lgan shoh. Navoiy uni "Hayrat ul-abror"da eng buyuk davlat rahbari sifatida talqin etadi:

*Adl ila yetdi falak tegrasin,  
Zulm ila bo'lsa, bu bosh ayqasin.* (Alisher Navoiy., 1983, 24)

Bu misralarda adolat kosmik tartib bilan tenglashtiriladi. Nushiravon adli orqali Navoiy o'z davr hukmdorlariga ibratli ideal obraz yaratadi, shu bilan birga tarixiy shaxs orqali axloqiy-falsafiy g'oyani ilgari suradi. Navoiy Nushiravonni doimo "adl" bilan bog'laydi. Sharq siyosiy tafakkurida "Adli Nushiravon" iborasi muqaddas tushuncha sifatida qaraladi. Bu obraz Navoiy asarlarida ideal hukmdor sifatida, o'z xalqiga g'amxo'r, kamtar va donishmand shoh qiyofasida namoyon bo'ladi.

*“Sharqda adolat tushunchasi doimo shoh siymosi bilan bog‘langan. Nushiravon esa bu timsolning eng yuksak namunasi. Navoiy bu obraz orqali davlat adolat ustida turmog‘i kerakligini anglatadi.”* (Karimov H.,2001, 92)

Navoiy uchun adolat bu – inson kamolotining ijtimoiy ko‘rinishi, shuning uchun ham u Nushiravon obrazini afsonaviy darajada idealizatsiya qiladi.

Navoiy Iskandar, Nushiravon, Doro orqali adabiyotda ma‘naviy konseptlarni ramziy obrazlar orqali ifodalashning klassik uslubini yaratadi. Bu metod Sharq adabiyotida keng qo‘llanilgan bo‘lib, ayniqsa falsafiy, diniy va siyosiy g‘oyalarni obrazli shaklda berish an‘anasi bilan bog‘liq.

Alisher Navoiy ijodida tarixiy voqealar yoki shaxslar oddiy tarixiy tafsilot sifatida emas, balki ma‘naviy-falsafiy mazmunning manbai sifatida ko‘riladi. Bu yondashuv Sharq adabiy-falsafiy tafakkuriga xos bo‘lib, tarixga ibrat, hikmat va axloqiy saboq manbai sifatida qarash an‘anasining davomidir.

Akademik A.Qayumov bu yondashuvni quyidagicha izohlaydi: *“Navoiy uchun tarixiy shaxs — bu tarixiy voqelik emas, balki ma‘naviy qadriyatlarning ifodachisi, axloqiy namunadir. Uning obrazlari orqali muallif zamonasi uchun ibratli ideal yaratadi”* (Qayumov A., 1979,74)

Ya‘ni, Navoiy tarixiy shaxslarni o‘z vaqtida qanday harbiy yoki siyosiy faoliyat ko‘rsatgani uchun emas, balki ular orqali qanday ijtimoiy g‘oya ifodalash mumkinligini ko‘zlab tasvirlaydi. Shu boisdan Iskandar, Doro, Nushiravon, Jamshid kabi shaxslar dostonlarda muayyan g‘oyaviy maqsad bilan qayta talqin qilinadi. Iskandar — “adl” va “hikmat”, Nushiravon — “adolat”, Doro esa — “kamol” timsolidir.

Bu yondashuvni yana bir necha adabiy-nazariy nuqtayi nazarlar orqali mustahkamlash mumkin: Professor G‘.G‘ulomovning fikricha: *“Sharq adabiyotida tarixiy shaxslarning badiiy obrazga aylanishi jarayonida ularning tarixiyliigi emas, balki u orqali targ‘ib qilinayotgan axloqiy qadriyatlar muhim hisoblangan”* (G‘ulomov G‘.,1991,103).

Ya‘ni, bu uslub badiiy timsollarning arxetipik mohiyatga ega bo‘lishiga olib keladi: ular o‘z zamonasi uchun emas, doimiy ibrat uchun yashaydi.

Professor H.Karimov Navoiy asarlarida tarixning emas, balki tarixdan olinadigan falsafiy va axloqiy xulosalar muhimligini alohida ta’kidlaydi: *“Navoiy tarixni hodisalar ketma-ketligi sifatida emas, balki ijtimoiy ongning shakllantiruvchi g’oya sifatida ko’radi. Shu bois u tarixiy obrazlar orqali davr muammolariga badiiy javob beradi”* (Karimov H., 2001,87). Demak, tarixiy obrazlar vositasi orqali Navoiy bugungi voqelik uchun muhim bo’lgan yo‘l-yo‘riq, ideal, xulq me’yorlarini belgilaydi.

Navoiy asarlarida tarixiy qahramonlarning talqini tasavvuf falsafasi bilan ham uyg’unlashadi. Xususan, Iskandar obrazi tasavvufda nafs ustidan g’alaba qilgan orif podshoh sifatida talqin etiladi. Bu haqda M. Muhammadjonov yozadi: *“Iskandar obrazida Navoiy nafaqat tarixiy siymoni, balki ruhiy kamol topgan, nafsini yenggan, haqiqatga intilgan orif shohni gavdalantiradi”* (Muhammadjonov M., 1989,121).

Bunda Iskandar — tarixiy kuch emas, balki ruhiy kuch, ichki barkamollik ifodasidir.

*“Iskandar — ulug’ shoh emas, balki hikmat izlovchi odil podshoh timsolidir. U zohiran dunyoni zabt etgan, botinan esa o’z nafsini yenggan shaxs sifatida talqin qilinadi.”* (Zohidov H.,1998,65)

Navoiy bu obraz orqali Temuriylar davridagi “odillik bilan davlat boshqaruvi” g’oyasini poetik timsolda ko’rsatadi.

## **NATIJALAR**

Navoiy tarixga, avvalo, ibrat manbai sifatida qaraydi. U tarixiy obrazlarni real voqealar ketma-ketligi emas, balki g’oyaviy timsollar sifatida ifodalaydi. Bu yondashuv Navoiy poetikasining falsafiy asosini tashkil etadi: tarixiy shaxs orqali adolat, hikmat, kamol, ruhiy barkamollik kabi ma’naviy qadriyatlar badiiy shakllantiriladi. A.Qayumov, G’.G’ulomov, H. Karimov, M. Muhammadjonov kabi tadqiqotchilar buni o’z asarlarida asoslab berganlar.

Alisher Navoiy tarixiy shaxslar orqali ma’naviy timsollar yaratadi. Iskandar – ilm va adolat, Nushiravon – sof adolat, Doro – siyosiy hikmat va sabr timsolidir. Ularning har biri real tarixiy shaxs sifatida emas, balki axloqiy-falsafiy g’oyalarning

badiiy mujassamlanmasi sifatida talqin qilinadi. Bu esa Navoiy asarlarining zamonaviy qadriyatlar uchun ham dolzarb bo‘lishini ta’minlaydi.

Navoiy tarixiy obrazlarni yuksak badiiy til va falsafiy qatlamda tasvirlaydi. Ularning harakati, nutqi, niyatlari orqali o‘zining tasavvufiy va axloqiy dunyoqarashini bayon qiladi. Ayniqsa “Xamsa” tarkibidagi dostonida tarixiy obrazlar ruhiy jihatdan boyitilgan va idealizatsiyalangan.

Navoiy ijodi tarixiy obrazlarni shunchaki voqelik qaydi sifatida emas, balki axloqiy-estetik va falsafiy g‘oyalarni ifodalovchi timsollar darajasiga ko‘tardi. Farhodda — fidoyilik, Iskandarda — donishmandlik, Bahromda — ruhiy yuksalish, Nushiravonda — adolat, Temurda — siyosiy yetuklik mujassam. Bu esa Navoiyni Sharq adabiyotida nafaqat shoir, balki axloqshunos, siyosatshunos va faylasuf sifatida qadrlash imkonini beradi.

Alisher Navoiy dostonchilikda tarixiy shaxslar obrazlarini yuksak darajadagi badiiy yondashuv bilan talqin etgan. U bu obrazlar orqali o‘z davrining muammolari, inson ruhiyati, ijtimoiy adolat va ma’naviy kamolot masalalarini ochib bergan. Tarixiy shaxslar uning uchun faqat o‘tmish qahramonlari emas, balki abadiy g‘oyalarni tashuvchi timsollardir. Shu bois Navoiy dostonlaridagi tarixiy obrazlar faqat badiiy bezak emas, balki asarning g‘oyaviy va kompozitsion asoslaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Tarixiy shaxslar obrazlarining Navoiy dostonlaridagi paydo bo‘lishi tasodifiy emas. Bu, bir tomondan, Sharq adabiyotidagi an’anaviy yondashuvni davom ettirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarixiy ong va badiiy tafakkurning sintezidan dalolat beradi. Navoiy tarixiy shaxslarni faqat voqea ishtirokchisi sifatida emas, balki axloqiy-ruhiy timsollar, ijtimoiy va siyosiy g‘oyalar tashuvchisi sifatida obrazlashtiradi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav Parvez obrazi tarixiy shohlar sulolasiga mansub bo‘lib, uning hayoti muayyan tarixiy faktlarga tayanadi. Shu bilan birga, Navoiy uni romantik qahramon, kechinmalar va kurashlar ichida yashovchi, gohida xatoga yo‘l qo‘yuvchi inson sifatida ham tasvirlaydi. Bu esa tarixiylik bilan badiiylikning uyg‘unlashuvi misolidir.

## XULOSA

Alisher Navoiy ijodidagi obrazlar sintezi — nafaqat o‘z davrining, balki bugungi adabiy tafakkurning ham muhim boyligidir. Uning yaratgan tarixiy va afsonaviy obrazlari bugungi adiblar uchun o‘ziga xos maktab, mahorat darsi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki u bu obrazlar orqali hayotni, insonni, jamiyatni tushunishning badiiy modelini taklif qilgan. Bugungi adabiyotda ham tarixiy obrazlar mavjud, ammo ko‘pincha ular faqat voqealarni bayon qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Navoiy esa tarixiy shaxs obraziga chuqur falsafiy va ruhiy mazmun bergan. U tarixiy obrazni ideal inson darajasiga ko‘targan. Bu yondashuv bugungi adiblar uchun juda muhim tajriba sanaladi. Afsonaviy obrazlarning badiiy sintezi esa, zamonaviy yozuvchilarga tasavvur, simbolika va ramziy tafakkur asoslarini o‘rgatadi. Chunki afsona — bu xalqning ruhiy dunyosi, timsol va orzularining in’ikosi. Navoiy bu afsonalarni poetik tilda ifodalaydi, ularga yangi hayot, yangi ruh baxsh etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Juraev M., Navoiy asarlarida tarixiy obrazlar, T., 1999, b. 41
2. Zohidov H. Sharq mumtoz adabiyotida adolat timsollari, T., 1998, b. 65
3. Karimov B.X., Badiiy asarda tarix va obraz, Toshkent, 2007, b. 34
4. Karimov H., Sharq mumtoz adabiyotida tarixiy obraz masalasi, T., 2004, b. 112
5. Karimov H., Adabiyot va ijtimoiy ong, T.: Fan, 2001, b. 87
6. Кухаренко В.А., Проблемы исторической прозы, М., 1981, с. 56
7. Muhammadjonov M., Navoiy badiiy tafakkuri, T.: Fan, 1989, b. 121
8. Rustamov E., Navoiy falsafiy qarashlari, T.: Universitet, 2005, b. 165
9. Hayitmetov A., Navoiy asarlari tahlili, T.: O‘qituvchi, 1974, b. 89
10. G‘aniyev S., Alisher Navoiy va g‘azal mulki, T.: Fan, 1991, b. 138
11. G‘ulomov G‘. Sharq mumtoz adabiyoti poetikasi, T.: O‘qituvchi, 1991, b. 103
12. Qayumov A., Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti, T.: Fan, 1983, b. 112
13. Qori Niyoziy T., Navoiy asarlarining g‘oyaviy manbalari, T.: Fan, 1960, b. 43

**REFERENCES**

1. Juraev, M. (1999). Navoiy asarlarida tarixiy obrazlar [Historical images in Navoi's works]. Tashkent.
2. Zokhidov, H. (1998). Sharq mumtoz adabiyotida adolat timsollari [Symbols of justice in classical Eastern literature]. Tashkent.
3. Karimov, B. Kh. (2007). Badiiy asarda tarix va obraz [History and character in a literary work]. Tashkent.
4. Karimov, H. (2004). Sharq mumtoz adabiyotida tarixiy obraz masalasi [The issue of historical imagery in classical Eastern literature]. Tashkent.
5. Karimov, H. (2001). Adabiyot va ijtimoiy ong [Literature and social consciousness]. Tashkent: Fan.
6. Kukharenko, V. A. (1981). Problemy istoricheskoy prozy [Problems of historical prose]. Moscow.
7. Muhammadjonov, M. (1989). Navoiy badiiy tafakkuri [Navoiy's artistic thinking]. Tashkent: Fan.
8. Rustamov, E. (2005). Navoiy falsafiy qarashlari [Navoiy's philosophical views]. Tashkent: Universitet.
9. Hayitmetov, A. (1974). Navoiy asarlari tahlili [Analysis of Navoi's works]. Tashkent: O'qituvchi.
10. G'aniyev, S. (1991). Alisher Navoiy va g'azal mulki [Alisher Navoi and the world of ghazals]. Tashkent: Fan.
11. G'ulomov, G'. (1991). Sharq mumtoz adabiyoti poetikasi [Poetics of classical Eastern literature]. Tashkent: O'qituvchi.
12. Qayumov, A. (1983). Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti [Navoi and classical Eastern literature]. Tashkent: Fan.
13. Qori Niyoziy, T. (1960). Navoiy asarlarining g'oyaviy manbalari [Ideological sources of Navoi's works]. Tashkent: Fan.